



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

FUQAROLIK PROTSESSIDA DAVLAT ORGANLARI VA MAHALLIY O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI ISHTIROKINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Jo‘rayev Javlonbek Norboboyevich

Yuristlar malakasini oshirish markazi

“Xususiy-huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

mail: javlon-juraev@mail.ru

Mazkur maqolada jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali fuqarolarning davlat organlari bilan o‘zaro samarali aloqasini ta’minlash, davlat organlari faoliyatida qonuniylikka rioya etilishini nazorat qilish, fuqarolik ishlari ko‘rilishida davlat organlarining o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining ishtiroki, aholining sud hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda jamoatchilik nazoratini ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: sud hokimiyati, jamoatchilik nazorati, fuqarolik protsessi, ommaviy axborot vositalari, sud ishlarini yuritish, protsessual harakatlar, arbitraj, sud-tergov jarayonlari, fuqarolarning o‘zini o‘z boshqarish organlari.

Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishda fuqarolik jamiyatni institutlari muhim omilga aylanmoqda. Fuqarolarning o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishda, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratishda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashga ko‘maklashishda mazkur institutlar tomonidan jamoatchilik nazoratining amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali fuqarolarning davlat organlari bilan o‘zaro samarali aloqasini ta’minlash, davlat organlari faoliyatida qonuniylikka rioya etilishini nazorat qilish masalasi ayniqsa dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta’minlash vazifasi yuklatilgan sud hokimiyatining ochiqligini oshirishda, aholining



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

sud hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda jamoatchilik nazoratini ta’minalash mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish taqozo etiladi.

Ta’kidlash joizki, sud hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish boshqa davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga qaraganda o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu o‘rinda sud hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minalash, protsess ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish, davlat siri, farzandlikka olish siri, tijorat siri yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirlarni saqlash zarurati e’tiborga olinadi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonuni 2-moddasida ham sud ishlarini yuritish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi nazarda tutilgan. Bu esa sud ishlarini yuritish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini nazarda tutuvchi alohida qonun hujjatlari sifatida Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual, Jinoyat protsessual va Ma’muriy sud ishlarini yuritish kodekslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator normativ-huquqiy hujjatlarida sud hokimiyati organlari faoliyatida jamoatchilik nazoratining muhimligi, uni amalga oshirish mexanizmlari o‘z ifodasini topdi. Xusan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-yuldagи “Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida sndlarning aholi bilan ochiq muloqotini yo‘lga qo‘yish va sud hokimiyatining ochiqligini oshirish yo‘lidagi muhim chora sifatida sud ishlarini sayyor sud majlislarida ko‘rib chiqish amaliyoti kengaytirilganligi ta’kidlangan.

Shu bilan birga mazkur Farmonda sud hokimiyati organlari faoliyatining tahlili ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishga to‘sinqlik qilayotgan qator muammo va kamchiliklar sifatida sndlarning jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlari qoniqarsiz darajada tashkil etilganligi, bu esa sud faoliyatini lozim darajada yoritish imkonini bermayotganligi, aholining sud hokimiyatiga ishonchi pasayishiga olib kelayotganligini ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchn oshirish chora-tadbirlar



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

to‘g‘risida”gi Farmonida sud ishlarini yuritish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning quyidagi shakllari nazarda tutilgan:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi veb-saytida sud qarorlarini tizimli ravishda e’lon qilish tartibini bosqichma-bosqich joriy etish;
- qabul qilingan sud hujjati o‘qib eshittirilganidan so‘ng uning ma’mun-mohiyatini sud protsessi ishtirokchilariga tushuntirilishini sud amaliyotiga joriy etish;
- sudlar faoliyati to‘g‘risida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini habardor qilish maqsadida har chorakda viloyat sudlari raislari va ularning o‘rnbosarlari tomonidan brifinglar o‘tkazish;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay’atlari tomonidan sud ishlarini taftish tartibida, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan sud ishlarini apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish amaliyoti obzorlarini har chorakda e’lon qilish.

Tahlillar sud ishlarini yuritishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning quyidagi shakllari mavjudligini ko‘rsatadi:

Birinchidan, sudlar faoliyatiga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini to‘liq joriy etish, ya’ni sud majlislarini video-konferensaloqa tizimi orqali olib borilishini kuchaytirish, har bir viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarning veb-saytlarini tashkil etish, shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlagan holda va sud ishtirokchilarining roziligi bilan yopiq sud jarayonida ko‘rib chiqilganlaridan tashqari barcha sud qarorlarini sudlarning veb-saytlarida e’lon qilib borilishini ta’minlash sud qarorlarini chop etish tartibini joriy qilish.

Ikkinchidan, sud ishlarini yuritish jarayonidagi protsessual harakatlarni video, audio qayd etish, sud-tergov jarayonlarini to‘liq stenogramma qilish.

Uchinchidan, sud ishlarini sayyor sud majlislarida ko‘rib chiqish amaliyotini kengaytirish.

To‘rtinchidan, sudda fuqarolarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qiluvchi jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘z boshqarish organlari vakillari ishtirokini kengaytirish.

Beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi huzurida Ilmiy-maslahat kengashining faoliyat yuritishi.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

Fuqarolik protsessida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning muhim ko‘rinishlaridan biri bu – jamoat tashkilotlarining, fuqarolar o‘zini o‘z boshqarish organlarining sudda fuqarolarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ishtirok etishi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 52-moddasiga ko‘ra, yuqorida qayd etilan shaxslar qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat etish huquqiga ega. Shuningdek, mazkur shaxslar fuqarolar, jamiyat va davlatning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ishtirok etishi jalb qilinishi yoki o‘z tashabbusi bilan protsessga kirishishi mumkin.

Fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan bo‘lgan fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilib sudga murojaat qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunida o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, fuqarolar yig‘ini raisi sudda fuqarolarning manfaatlarini ifodalashi, spiptli ichimliklap, giyohvandlik vositalapi va psixotrop moddalarni suiiste’mol qilishi natijasida fuqaponi muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘pisida yoki fuqaponi puhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqida sudga ariza berish huquqiga ega (Qonunning 14-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hamda shu asosda qabul qilinayotgan qonunlarimizda davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida sndlarda ishtirok etishining mustahkamlab qo‘yilishi, avvalo, odil sudlovni amalga oshiruvchi sud hokimiyati bilan fuqarolar, fuqarolik jamiyatni institutlari o‘rtasidagi munosabatga asos bo‘ladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Qolaversa, sndlarda ishtirok etish orqali davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar amalda qonunlarning ijrosini, ya’ni qonunlarning ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladilar. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari va boshqa



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

tashkilotlarning fuqarolik protsessida ishtirok etishini yana muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tomoni shundan iboratki, ushbu organlar o‘z ishtiroklari orqali, ish yuzasidan xolisona o‘z xulosalarini berish bilan ishi bo‘yicha qonuniy va asoslantirilgan hal qiluv qarorlarining chiqarilishida sudlarga ko‘maklashadi.

Shu o‘rinda o‘rganilgan MDHga a’zo davlatlar qonunchiligidagi, xususan, Armaniston Respublikasining “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risida”gi qonuni 33-moddasi 3-bandida ko‘rsatilishicha, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari rahbari sudda munitsipalitetning manfaatlarini ifoda etishi nazarda tutilgan.

Mazkur masala Rossiya Federatsiyasining “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risida”gi qonunida bat afsil bayon etilganligini ko‘rish mumkin. Mazkur Qonunning posyolka va qishloq Kengashining vakolatlari deb nomlangan 49-moddasida qonunda nazarda tutilgan hollarda yuqori turuvchi davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning hujjatlarini noqonuniy deb topish to‘g‘risidagi talab bilan sudga yoki arbitraj sudiga murojaat qilish vakolatiga ega ekanligi belgilangan. Qonunning 54-moddasiga ko‘ra, qo‘rg‘on, qishloq ma’muriyati sudga davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar, korxonalar, muassasalarning o‘z hududida yashovchi fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini buzishga qaratilgan qarorlarini haqiqiy emas deb topish haqidagi talab bilan sudga murojaat qilish vakolatiga ega ekanligi nazarda tutilgan. Qonunning 55-moddasida tuman Kengashi, 66-moddada esa shahar ma’muriyatiga qonunda nazarda tutilgan hollarda yuqori turuvchi davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning hujjatlarini noqonuniy deb topish to‘g‘risidagi talab bilan sudga yoki arbitraj sudiga murojaat qilish vakolatiga ega ekanligi belgilangan.

“Belarus Respublikasida mahalliy boshqaruv va o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunida (9-modda) ijro qo‘mitasi sud tartibida mahalliy xo‘jalik hududining manfaatini ta’minalash va himoya qilishga qaratilgan choralar ko‘rishi nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonuni 14- moddasida fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) sudda fuqarolarning manfaatlarini ifodalashi to‘g‘risidagi norma mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lishiga qaramay, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fuqarolar



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

yig‘ini raisi tomonidan hududda istiqomat qiluvchi biror fuqaroning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilingan holatlar amaliyotda juda kam uchraydigan holat hisoblanadi. Bizning nazarimizda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan sudga murojaat qilish holatlarining kamligi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunda mazkur organlarga sudga murojaat qilish bo‘yicha vakolatlarini yanada aniqlashtirish, aynan qaysi holatlarda sudga murojaat qilishga vakolatli bo‘lishiga doir normalarni mustahkamlashni talab etadi. Shu maqsadida mazkur Qonunning 14-moddasiga fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining sudga murojaat qilishi va sudda ishtirokiga doir maxsus norma kiritilishi va unda mazkur organlar davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar, korxonalar, muassasalarning o‘z hududida yashovchi fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini buzishga qaratilgan qarorlarini haqiqiy emas deb topish, qonunda nazarda tutilgan hollarda yuqori turuvchi davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning hujjatlarini noqonuniy deb topish to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat qilishi mumkinligi haqidagi qoida mustahkamlab qo‘yilishi lozim.

Ta’kidlash kerakki, qonunlarimiz ayrim toifadagi fuqarolik ishlarini sudda ko‘rib hal etishda albatta boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlarining ishtirokini majburiy qilib qo‘yan bo‘lsa-da, biroq fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishtiroki majburiy bo‘lgan fuqarolik ishlari nazarda tutilmagan. Shunday ekan, qonunchilikda ayrim toifadagi fuqarolik ishlarini sudda ko‘rib hal etishda albatta boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishtirokining majburiyligini nazarda tutuvchi normalar kiritilishi taklif qilinadi. Masalan, sudlar tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko‘rishda, taraflarga yarashishi uchun muhlat berishda oilani saqlab qolish maqsadida jamoat vakillarini ishga jaib qilish haqidagi qoida qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo‘yilishi lozim. Shuningdek, sudlar tomonidan bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarni hal qilishda otaonaning, bola ixtiyorlarida bo‘lgan shaxslarning uni tegishlicha tarbiyalashni ta’minlay olmasliklari aniqlansa, sud fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining da’vosiga asosan bolani vasiylik va homiylik organlarining qaramog‘iga olib berishi haqidagi norma kiritilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

MDHga a'zo davlatlar FPKni tahlil qiladigan bo'lsak, masalan, Rossiya Federatsiyasi FPKning 46-moddasi birinchi qismiga ko'ra, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, tashkilotlar yoki fuqarolar qonunda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini ushbu shaxslarning iltimosiga ko'ra himoya qilish uchun yoki nomuayyan shaxslar doirasining huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat etish huquqiga ega ekanliklari belgilab qo'yilgan.

Bu kabi huquqiy konstruksiya XX asrda Yevropa protsessual huquqida keng tarqalgan "guruh da'vosi" nomi bilan rivojlanganligini ta'kidlash lozim. Xususan, Fransiyada da'voga bo'lgan huquq 1907 va 1923-yillarda Kassatsiya sudi tomonidan tasdiqlangan. Shu o'rinda bir vaqtning o'zida da'voga bo'lgan huquqqa ishda taraf sifatida ishtirok etayotgan tashkilotlar ega bo'lish bilan bir vaqtida ushbu tashkilotlarning jamoaviy va yakka tartibdagi huquqlarni himoyachisi sifatida da'voga bo'lgan huquqlari ham tan olingan. Yuridik adabiyotlardan ma'lumki, da'voga bo'lgan huquq oldindan qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan va davlat tomonidan kafolatlangan shaxslarning (jismoniy va yuridik) buzilgan huquq yoki qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish uchun ularga berilgan moddiy tusdagi huquqdir.

Demak, yuqoridagi da'veoning ahamiyatli jihatlari shundaki, ularning yordamida bir vaqtning o'zida ommaviy-huquqiy hamda ko'p sonli shaxslar guruhining xususiy manfaatlarini ham himoya qilish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur da'vo bo'yicha bir shaxs yoki bir necha shaxslar bir butun guruhlarning huquqlarini himoya qilishi mumkin va o'zining protsessual tabiatiga ko'ra, bunday da'vo birgalikda ishtirok etuvchilar va vakillikning elementlaridan tashkil topgan murakkab birikmalarni hosil qiladi.

Shunday ekan, fuqarolik protsessida davlat boshqaruvi organlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, tashkilotlar yoki fuqarolarning qonunda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini ushbu shaxslarning iltimosiga ko'ra himoya qilish uchun yoki fuqarolar nomuayyan doirasining huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat etish huquqiga ega ekanliklarini belgilovchi normalarni mustahkamlash taklif qilinadi.

Milliy qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, masalan, O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 apreldagi 221-I-son "Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuning 24-moddasiga ko'ra mahalliy hokimiyat organlari, Qonunning 25-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari iste'molchilarining (iste'molchilar nomuayyan doirasining) huquqlarini himoya qilib, sudga murojaat etishga haqli ekanliklari belgilangan. Mazkur Qonunning 30- moddasiga ko'ra esa iste'molchilar o'z huquqlarining buzilishi bilan bog'liq da'volar bo'yicha, shuningdek tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari, iste'molchilarining jamoat birlashmalari iste'molchining (iste'molchilar nomuayyan doirasining) manfaatlarini ko'zlab qo'zg'atiladigan da'volar bo'yicha davlat boji to'lashdan ozod qilinadilar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, fuqarolik sud ishlarini yuritishda jamoatchilik nazoratining shakl va mexanizmlarining mamlakatimiz qonunchiligidagi mustahkalanishi, o'z navbatida sud orqali himoyalanish huquqini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'limgan shaxslarning huquqlarini sud orqali himoya qilishda qo'shimcha kafolat vazifasini bajaradi. Shuningdek, protsessual qonunchilikda jamoaviy da'vo institutining kiritilishi esa bir vaqtning o'zida davlatga ham, jamiyatga ham birdek kerakli bo'lib, xususiy tusdagi manfaatlarni himoya qilishning samarali vositasi hisoblanadi. Bunday da'volarni ko'rib chiqishga qabul qilgan sudlar bir vaqtning o'zida bir guruh shaxslarning huquqlarini himoya qilish masalasini hal etib, o'z navbatida protsessual chiqimlarning oldini oladi. Bu kabi da'volarni sudda ko'rish va hal etish jarayonida sudlar aniq bir subyektlarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini tiklash masalasini ham hal etishlari mumkin bo'ladi.